Ushbu maqola boy tarixga ega va xilma-xil ekotizimlarga ega bo‘lgan O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi yutuqlar, davlat tomonidan beriladigan imkoniyatlar hamda mavjud muammolarni o‘rganadi. Hukumat tashabbuslari va xalqaro hamkorlikni o‘rganish orqali ushbu maqola O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot sari sayohati haqida tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, atrof-muhit, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, qayta tiklanadigan energiya, chiqindilar, tabiiy resurslar, past uglerodli rivojlanish, iqlim o‘zgarishi, ekologiya.

Abstract: The green economy is considered an important social, economic, and environmental factor in the management of national economies based on sustainable development trends in the global community. As a modern form of economic development, the green economy opens up opportunities for the sustainable development of countries and their various regions, the prevention of environmental pollution, the rational and efficient use of resources, and the creation of new jobs.

This article examines the achievements, government opportunities, and challenges in developing a green economy in Uzbekistan, a country with a rich history and diverse ecosystems. By examining government initiatives and international cooperation, this article provides insight into Uzbekistan's journey towards a green economy.

Key words: green economy, sustainable development, environment, environmental sustainability, environmental problems, renewable energy, waste, natural resources, low-carbon development, climate change, ecology.

Аннотация: В мировом сообществе зеленая экономика рассматривается как важный социальный, экономический и экологический фактор управления национальными экономиками на основе тенденций устойчивого развития. Зеленая экономика как современная форма экономического развития открывает возможности для устойчивого развития стран и их различных регионов, предотвращения загрязнения окружающей среды, рационального и эффективного использования ресурсов, создания новых рабочих мест.

В этой статье исследуются прогресс, возможности правительства и текущие проблемы в развитии зеленой экономики в Узбекистане, стране с богатой историей и разнообразными экосистемами. Рассматривая правительственные инициативы и международное сотрудничество, данная статья дает представление о пути Узбекистана к зеленой экономике.

Ключевые слова: Зеленая экономика, устойчивое развитие, окружающая среда, экологическая устойчивость, экологические проблемы, возобновляемые источники энергии, отходы, природные ресурсы, низкоуглеродное развитие, изменение климата, экология.

## KIRISH

Yashil iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga o'tish xalqaro miqyosda, O'zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev butun dunyo e'tiborini Orol dengizi bilan bog'liq masalalarga qaratib kelmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizning barcha hududidan texnika va mutaxassislar jalb etilib, Orolbo'yi mintaqasida ekologik muvozanatni yaxshilashga kirishildi. Orol dengizining qurib qolgan yer maydonlarida ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi, hudud xususiyatlariga mos daraxtlar ekildi va bu jarayon izchil davom etmoqda. Qayd etilganidek, ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida dunyoda jadal iqtisodiy o'sishga erishildi. Ammo sanoat, qishloq xo'jaligining rivoji, aholi sonining keskin ko'payishi insoniyat uchun ko'plab ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta'sirini yumshatish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistondagi ekologik vaziyat bilan bog'liq mavjud muammolarni global, mintaqaviy, milliy va institutsional muammolarga guruhlash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi PF-16-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida "Atrof muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari sifatida aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslarni tejash, ulardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi vazifalar belgilab berilgan. [1]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi 514-son "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"[2]gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida yashil iqtisodiyot asosida boshqaruv masalalari shuningdek, ishlab chiqarish tarmoqlarining tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish tamoyiliga rioya qilishlari, iqtisodiyot sohasining tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rishi, yashil iqtisodiyotga o'tish davrida xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, shuningdek, ularning yashil o'sish bo'yicha salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish masalalari ustuvor vazifasi sifatida belgilab berilgan.

Yurtboshimizning, 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"[3]gi farmonida mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmsel shamollari va chang qum-bo'ronlarining atrof-muhitga zararli ta'sirlarning oldini olish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda "Yashil makon" ummumilliy loyihasini yanada ommalashtirish, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish hamda "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash uchun xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 04-oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi iqtisodiyotning resrurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda, shuningdek, atrof muhitga salbiy antropogen ta'sirni kuchaytirmoqda va issiqxona gazlari ajratmalarining ortishiga olib kelmoqda. Qarorda davlat tomonidan rag'batlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish, Orolbo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta'sirini yumshatish choralarini ko'rish, ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga "yashil" iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ishlab chiqish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Hukumatimiz tomonidan hududlarni yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida farmonlar, qarorlar va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi PF-16-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni

2 Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi 514-son "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori

3 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish va “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish davri muammolariga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlardan A.M.Rodriges, D.Zhang, M.Mohsin, R.Shoʻderholm, A.Kasztelan, L.Georgeson, N.Norouzilarni misol keltirishimiz mumkin. MDH davlatlari olimlaridan bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borganlar sifatida С.А.Липина, Е.В.Арапова, С.Н.Бобилёва, П.А.Кирюшина, О.В.Кудрявсевой, Т.В.Захарова, В.А.Похвошев va boshqalarni koʻrsatish mumkin. Oʻzbekistonlik A.V.Vahobov, SH.X.Hojiboqiev, T.K.Iminov, A.Isadjanov, D.Sh.Yavmutov, S.Burxonov, E.A.Moʻminova, kabi olimlarning tadqiqotlarida “yashil iqtisodiyot”ning xususiyatlari, uning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati masalalari bayon qilingan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Yashil iqtisodiyot” ga oʻtish va yashil ekologiyalashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarning keng qoʻllaniladigan umumiy va individual usullaridan foydalaniladi. Bunda dialektik, sintez va analiz, abstraksiya, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, mantiqiy yondoshuv, deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shiddat bilan yangilanib va oʻzgarib borayotgan bugungi davrda “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish muhim hayotiy ehtiyojga aylandi. Sayyoramizda shaharlar yiriklashib, aholisi 20-35 millionli megapolislar koʻpayib bormoqda. Bu energoresurslar, ayniqsa, yoqilgʻiga boʻlgan talabni kun sayin oshirib kelmoqda. Inson omili tufayli oxirgi yuz yilda yer sharida ekin ekiladigan yer maydoni toʻrtdan bir qismga, oʻrmonlar uchdan ikki qismga qisqardi. Shuningdek, oxirgi 50 yil ichida dunyoda aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan ichimlik suvi 60 foizga kamaydi. Har yili sanoat sohasida foydalanilgan 150−160 km. kub suv daryolar, koʻllarga oqizilib yuboriladi. Turli falokatlar, texnik xatolar tufayli har yili ummonlarga 25−30 million tonna neft tushadi. Sanoatda 1 tonna poʻlat mahsulotini olish uchun 300 metr kub suv, 1 tonna qogʻoz ishlab chiqarishga 900 metr kub suv ishlatiladi. Umumiy suv hajmining 70 foizi qishloq xoʻjaligida, 20 foizi sanoatda va 10 foizi uy xoʻjaliklarida sarflanadi. Taxminlarga koʻra, 2030-yilga borib sayyoramizning 47 foiz aholisi suv tanqisligi muammosi bilan yuzma-yuz boʻladi.

Global darajada yashil iqtisodiyotga oʻtishda davlatlar uchun katta miqdordagi moliyaviy mablagʻlarni talab etadi. Xalqaro energetika agentligining 2050-yilgacha CO2 emissiyasini ikki baravarga kamaytirish boʻyicha turli ssenariylari shuni koʻrsatmoqdaki, ushbu maqsadga erishish uchun “yashil iqtisodiyot”ga qoʻshimcha investitsiyalar miqdori dunyo YaIMning 1-2,5% darajasida boʻlishi talab etiladi.[4]

Shu munosabati bilan Oʻzbekiston ham yashil iqtisodiyotga oʻtish qadamlarini mustaqillik yillaridan boshlab yuborgan. BMTning “Iqlim oʻzgarishi toʻgʻrisidagi Doiraviy konvensiyasi” (BMT IOʻDK) iqlim oʻzgarishiga qarshi kurash boʻyicha xalqaro harakatlarning asosi boʻlib, atmosferadagi issiqxona gazlari konsentratsiyasini iqlimiy tizimga xavfli antropogen taʼsir koʻrsatishiga yoʻl qoʻymaydigan darajada barqarorlashtirishga qaratilgan. Oʻzbekiston BMT IOʻDK ga 1993-yilda qoʻshildi. Oʻzbekistonda BMT IOʻDKni amalga oshirish boʻyicha harakatlarni muvofiqlashtirish Oʻzbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi zimmasiga yuklatilgan.

Oʻzbekiston 1999-yilda rivojlangan mamlakatlarga issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish yoki barqarorlashtirish majburiyatlarini yuklovchi xalqaro bitim - Kioto protokolini ratifikatsiya qildi.

2017-yil 19-aprelda Oʻzbekiston Respublikasi Parij bitimini imzoladi va ushbu bitimni 2018-yil 2-noyabrda ratifikatsiya qildi. Oʻzbekiston Respublikasining OʻRQ-491-son “Parij bitimini ratifikatsiya qilish toʻgʻrisida” gi Qonuni 2018-yil 2-oktabrda qabul qilindi. Parij bitimi Oʻzbekiston Respublikasi uchun 2018-yil 9-dekabrdan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi. [5]

Parij bitimining asosiy maqsadi - Iqlim oʻzgarishi toʻgʻrisidagi Doiraviy konvensiyasini amalga oshirilishini yanada faollashtirish hisoblanadi, bundan tashqari global oʻrtacha haroratning industriallashtirishgacha (1750y.) boʻlgan darajaga nisbatan *2°C* ga saqlab turishni taʼminlash hamda haroratning 1,5°C gacha oʻsishini cheklashga harakat qilishdan iborat, bu 2050-yilga kelib iqlim oʻzgarishi global ajratmalarini 40-70% ga kamaytirishni va 2100-yilga kelib uning 0 yoki manfiy koʻrsatkichga yetkazishni talab etadi.

Barchamizga maʼlumki, mamlakatimizda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga oʻtishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-436-son qarori qabul qilindi[6]. Hujjat bilan 2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish va yashil oʻsishni taʼminlash dasturi tasdiqlandi. U quyidagi strategik maqsadlarga erishishga moʻljallangan:

---

4 Isadjanov A.A. “Yashil iqtisodiyot”: xususiyatlari va rivojlanish omillari. Iqtisodiyot va taʼlim / 2020 № 1
5 Вахобов А. В., Хажибакиев Ш. Х. : “Яшил иқтисодиёт” дарслик 196-бет.
6 https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_qanday qilib yashil_iqtisodiyotga oʻtadi.

− issiqxona gazlaridan chiqayotga zararli moddalarni 2010-yildagi koʻrsatgichlarga nisbatan darajadan 35% ga qisqartirish;

− qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVt ga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30% idan koʻprogʻiga yetkazish;

− sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20% ga oshirish;

− yalpi ichki mahsulot birligiga toʻgʻri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30% ga kamaytirish;

− iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 mln gektargacha maydonda suv tejovchi sugʻorish texnologiyasini joriy etish;

− yiliga 200 mln koʻchat ekish va koʻchatlarning umumiy sonini 1 mlrd dan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30% dan ortiqroqqa kengaytirish;

− qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65% dan oshirish va boshqalar.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi 561-sonli qarori bilan mamlakatimizda “yashil” infratuzilmalarni yaratishga xususiy kapitalni faol jalb etish, “yashil” iqtisodiyotning asosi hisoblangan soha va tarmoqlarni moliyaviy taʼminlashni qoʻllab-quvvatlash hamda “yashil” turdagi faoliyatni tasniflash mezonlarini joriy etish maqsadida milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi tasdiqlandi.

1-jadval. Milliy “yashil iqtisodiyot” taksonomiyasi yoʻnalishlari [7].

| Yashil taksonomiya yoʻnalishlari | Yoʻnalishlarning xususiyatiga koʻra boʻlimlari |
|---|---|
| Suv va xomashyolardan foydalanish samaradorligi | Suvni tejash |
| | Chiqindilar va chiqindi suvlardan samarali foydalanish |
| | Resurslarni tejash va tiklash |
| Havo va tuproq sifatini yaxshilash | Havo sifati |
| | Tuproq ifloslanishini oldini olish |
| Barqaror qishloq va oʻrmon xoʻjaligi, ekoturizm | Barqaror qishloq xoʻjaligi |
| | Oʻrmonlarni barqaror boshqarish va biologik xilma-xillikni saqlash |
| | Barqaror turizm |
| Yashil transport | Kam uglerodli transport vositalari |
| | Kam uglerodli tashish va yuk tashish |
| | Yashil transport infratuzilmasi |
| Energiya samaradorligini oshirish | Mavjud va quriliyotgan sanoat obʼektlarida energiya samaradorligini oshirish |
| | Budjet va kommunal sohada energiya samaradorligini oshirish |
| Qayta tiklanuvchi energiya | Shamol. Quyosh. Bioenergiya. Vodorod ishlab chiqarish. Geotermal. Gidro. |

Yashil iqtisodiyot-bu atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. U toza energiya manbalaridan foydalanishni, tabiiy resurslardan kompleks foydalanishni, karbonat angidrid va boshqa issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishni, shuningdek, ekologik barqaror texnologiyalar va sanoat jarayonlarini kuchaytirishni oʻz ichiga oladi. Ushbu muammolarni quyidagi jadval koʻrinishida ifodalash mumkin.

7 Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 25 oktyabrdagi «Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 561-sonli qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2-jadval. O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishi bilan bog'liq muammolar[8].

| | Muammolarning nomlanishi | Muammolarning ko'rinish jihatlari |
|---|---|---|
| 1 | Moliyaviy cheklovlar | O'zbekiston uchun yashil texnologiyalar va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyalashtirishni ta'minlashdagi qiyinchiliklar |
| 2 | Texnologik muammolar | Yashil iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy texnologiya va nou-xaudan foydalanish talab etiladi, bu esa resurslari cheklangan mamlakat uchun qiyin bo'lishi mumkin. |
| 3 | Iqtisodiy tuzilmani o'zgartirish | Yashil iqtisodiyotga o'tish sanoat tuzilmasi va ishchi kuchida o'zgarishlarni talab qiladi, bu esa ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga, jumladan, an'anaviy tarmoqlarda ish o'rinlarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin |
| 4 | Ta'lim va xabardorlik | Aholi va korxonalar o'rtasida yashil iqtisodiyotning afzalliklari haqida ta'lim berish negizida xabardorlikni oshirish zarur |

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va iqtisodiyotning rivojlanish darajasi ko'p jihatdan energiya resurslari zaxiralariga bog'liq. Hozirgi kunga qadar dunyoda aniqlangan tabiiy energiya manbalari zaxiralari energiya iste'molining bugungi kun darajasida iste'mol qilinsa, 54 yil davomida energiyaga bo'lgan ehtiyojimizni qondirish imkonini beradi, xolos. Biroq ma'lumki, jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishi bir joyda to'xtab turmaydi. Rivojlanish va iqtisodiy o'sish energiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib keladi va energiya tanqisligi muammosi vujudga kelishi xavfini tug'diradi.

2024-yilda barcha yillarda kuzatilganidek, jahonda "yashil iqtisodiyot"ga jalb qilingan investitsiyalarning katta ulushi quyosh va shamol energiyasiga to'g'ri keldi. Muqobil energiya uchun ajratilgan investitsiya ko'lami keskin oshdi hamda 950 milliard dollarni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 32% ga ko'p demakdir. 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarni ko'rish mumkin:

3-jadval. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlari[9].

| t/r | Ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 2024-yil | 2026-yil | 2028-yil | 2030-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Elektr energiyani yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan kamaytirish | % | 14,0 | 22,0 | 27,0 | 30,0 |
| 2 | Elektr energiya umumiy iste'molining sanoatdagi ulushi | % | 25,0 | 23,0 | 21,0 | 20,0 |
| 3 | Elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini kengaytirish | % | 9,0 | 24,3 | 29,0 | 30,5 |
| | | Kvt/s | 8,6 | 25,0 | 34,0 | 40,7 |
| 4 | Kichik quvvatli quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish | Mvt | 150,0 | 400,0 | 800,0 | 1500,0 |
| 5 | Yaxshilangan ichimlik suv manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega aholi, jami aholiga nisbatan. | % | 80,93 | 87,12 | 88,5 | 90,0 |
| 6 | O'rmon fondi hududlarida daraxt va butalar zahiralarini ko'paytirish | mln.m3 | 68,1 | 77,0 | 85,5 | 92,3 |
| 7 | Yashil makon loyihasi doirasida shaharlardagi yashil maydonlarni kengaytirish *(aholi punktining umumiy maydoniga nisbatan)* | % | 12,4 | 15,8 | 23,8 | 30,0 |
| 8 | Hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasi | % | 40,0 | 50,0 | 60,0 | 65,0 |

8 Айнакулов М.А. Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционних отношений хозяйствуюших субъектов // Молодой учений». Международний научний журнал. Спецвипуск Джизакский политехнический институт. – 2016. – Т. 7. – №. 111.2. – С. 48-50.

9 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 декабрдаги «2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилганислоҳотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-436-сон Қарорининг 1-иловаси

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki yurtimizda so'nggi yillarda ekologiya sohasida, "Yashil iqtisodiyot" sohasida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Prezidentimiz tomonidan qilingan qarorlar, strategiyalar, davlatlararo kelishuvlar ekologiyamizni yanada yangi pog'onaga olib chiqishga asos bo'moqda.

Xususan Parij bilan tuzilgan bitim orqali biz mamlakatning issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha majburiyatlaridagi muhim qadamga erishdik. O'zbekiston "Yashil iqtisodiyot" siyosatini qo'llab ekologiyamizni yuqori darajalarga olib chiqdi. Shunday ekan kelajakda ham yashil iqtisodiyotga katta e'tibor qaratish zarur.

O'zbekistonda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlari bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

-mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining "yashil" va kam uglerodli rivojlanishga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish, "yashil" innovatsiyalarni joriy etish va ushbu sohaga investitsiyalarni jalb qilish choralarini ko'rish;

-yurtimizda faoliyat yuritayotgan tarmoq tashkilotlarining barqaror ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan rejalarini amalga oshirish va rivojlantirish istiqbollari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

-O'zbekistonda energiya va resurs samaradorligini oshirish hamda kam chiqindili mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektori o'rtasida integratsiyani ta'minlash;

- tegishli soha va ishlab chiqarish tarmoqlarining tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish tamoyillariga rioya etishini ta'minlash, iqtisodiyot sohasining tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini ta'minlash choralarini ko'rish;

- kelgusida uzoq muddatli istiqbolda barqaror ish o'rinlarini yaratish uchun "yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, shuningdek, ularning "yashil" o'sish bo'yicha salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish va boshqalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ 436-son qarori https://lex.uz/ru/docs/-6303230
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 04.10.2019- yildagi PQ-4477- sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4539502
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28.01.2023. PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-5841063
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-yilda Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi https://lex.uz/uz/docs/-6385716
5. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-oktyabrdagi " Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida" gi O'RQ-491-son Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30- oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5863-sonli Farmoni.
7. Milliy "yashil iqtisodiyot" taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023 yildagi 561-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6644013
8. Вахобов А. В., Хажибакиев Ш. Х. : "Яшил иқтисодиёт" дарслик 196-бет.
9. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., "Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari, "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №2, 2017 yil
10. Isadjanov A.A. "Yashil iqtisodiyot": xususiyatlari va rivojlanish omillari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2020 № 1

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz